

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY
MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS TA'LIM
METODIKALARI KAFEDRASI**

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-
AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH**
*(umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari
uchun uslubiy ko'rsatma)*

Samarqand – 2020

Rabbonayeva Dildora. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq maqollaridan foydalanish. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatma. – Samarqand VXXQTMOHM, 2020-yil. 20 bet.

Taqrizchilar:

X.Rabbanaqulov – SamDU, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti

D.Jo'rayeva – Samarqand XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi

Ushbu ko'rsatma umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq maqollaridan foydalanish usullari yuzasidan uslubiy tavsiyalar berilgan.

Uslubiy ko'rsatma Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy kengashining 2020-yil _____, - sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat yoshlarimizning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Sh.M.Mirziyoyev

Bolaning ongiga kichik yoshidan boshlab, Vatanga muhabbatni, g'ururni, qadriyatlarni, o'zlikni anglashni har bir darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda singdirib borilsagina barkamol avlodni tarbiyashdagi maqsadimizga erishishimiz oson va tezroq bo'ladi.

Sharq xalqlari ta'lim muassasalariga bolaga faqat ta'lim beruvchi, ilm-u hunar o'rgatuvchi maskan deb emas balki, inson shaxsini tarbiyalovchi, uni har tomonlama barkamol qilib shakllantiruvchi dargoh deb qarashgan.

Ma'naviyatli xalqimiz, ma'rifatpar ota-bobolarimiz me'ros qilib ketgan adabiyotlar, urf-odatlar, milliy bayramlar, milliy qadriyatlarimizni bolalarga boshlang'ich sinflardanoq o'rgatib borish lozim. Abdulla Avloniy aytganidek: „Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir“.

Jumladan, ta'lim-tarbiyaning yaxshigina quroli bo'lmish xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarga boshlang'ich sinflardanoq o'rgatib boriladi. Boshlang'ich sinfning deyarli barcha darsliklarida xalq og'zaki ijodi namunalari berilgan. Biz quyida xalq og'zaki janridan maqollarga kengroq to'xtalamiz.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ma'naviy- axloqiy tarbiya berish

O'zbek xalqidan asrlar davomida ko'plab fan va madaniyat namoyondalari yetishib chiqdiki, ularning turli fan sohalari bo'yicha yaratgan va bizgacha yetib kelgan boy ilmiy meroslari umumjahon miqyosida ham keng tanilgan.

Tarixni har tomonlama, atroflicha o'rganish, undan to'g'ri xulosalar chiqarish hozirgi davr va kelajak uchun muhim ahamiyatga egaki, bu tajriba doimo keyingi taraqqiyot uchun yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi. Mana shu sababli biz lozim bo'lgan har bir sohada, tarixga, o'tmishga murojaat qilamiz.

Xalqimizning buyuk pedagogi, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy o'zbek xalqining san'at va adabiyotni rivojlantirishda milliy maktablar uchun ta'lim va tarbiyaga oid bir necha asarlar yozdi. Bu asarlarda ham milliy, ma'naviy, axloqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish va ular asosida o'qitish usullarini yoritib bergan.

Abdulla Avloniy „Turkiy guliston yohud ahloq“ asarida tarbiyani yosh avlodga tug'ilgan kundan boshlab berish lozimligi, axloqli tarbiyalashda ma'naviyat bilan kuchlantirish, zehni milliy ruhda ravshanlashtirish lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa albatta ustoz va murabbiylar sayi harakati, ota-onalar va mahalla-kuy a'zolari bilan hamkorlikda juda yaxshi natijalar berishi mumkinligini e'tirof etib o'tadi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek „Fikrning quvvati, ziynati kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir“. Bu fikr zamirida juda katta fidoyilik yotganini ko'ramiz. Bu vazifalarni bajarish bilan o'quvchilarning qalbida ta'lim-tarbiya jarayoni bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiyani juda keng shakllantirish, o'tmishimizga hurmatni, bugungi kunga mehr-oqibatni, kelajakka esa ma'naviy meros orttirishimiz mumkin.

O'quvchilarda ongli intizomni, odobni tarbiyalashda o'qituvchilar o'z xulq-atvorlari, muomala madaniyati bilan namuna bo'lishlari darkor. Chunki ularning yurish-turishi, odobi o'quvchining ichki e'tiqodiga aylanishi va ma'naviyatiga ta'sir etishi kerak. Shundagina o'quvchilar jamiyat va jamoa oldida axloqiy tarbiya talablariga javob beradigan xulq-atvor egalari bo'la oladilar. O'quvchi o'qituvchining qanday dars o'tishi, uning muomala madaniyati, yurish-turishi, gaplashishiga qarab undan ma'naviy tarbiya oladi.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya esa yosh avlodni jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarni, ehtiyoji va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishida tarbiyaning ta'siri kattadir.

Milliy g'oyani o'quvchilar ongiga sindirishda o'qish, ona tili, odobnoma, tarix, adabiyot va boshqa fanlarni o'qitish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi yoshlar To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi xalq qahramonlaridan Vatanga sadoqat, o'z xalqini sevish va farovonlik namunalarini, buyuk sohibqiron Amir Temurdan, temuriy hukumdor va mutafakkirlardan adolat, or-nomus, iftixor tuyg'ularini o'rganishlari kerak. Bu qahramonlarimiz nima uchun yashashdan ko'ra dushman bilan olishib, halok bo'lishni avzal ko'rdilar, nima uchun so'nggi qoni qolguncha Vatanni himoya qildilar kabi savollar berib, o'quvchilar o'rtasida bahs-munozara yuritish yaxshi samara beradi. Natijada o'quvchilar Vatanni, ozodlik, vatanparvarlik so'zlarini yanada chuqurroq anglab yetadilar.

Muqaddas Quroni Karim, muborak hadislar, shuningdek imom Al Buxoriy, At-Termiziy, Baxovuddin Naqshbandiy, Az-zamaxshariy, Axmad Yassaviy, Maxdumi A'zam, abu Mansur Motrudiy, Buxoriddin Marg'inoiy, Sufi Olloyorxon singari mo'tabar zotlarning, al-Farobiy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy va Navoiy kabi mutafakkir allomalarning boy merosini o'rganishlari, o'quvchilarda ular qoldirgan ilmiy va madaniy merosga alohida hurmat va ehtirom tuyg'ularini shakllantirishda katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darsliklarida yuqoridagi allomalar va ular qoldirgan boy milliy-ma'naviy me'rosimizni o'rganishga qaratilgan bir qancha mavzular va bo'limlar kiritilgan. Bular jumlasiga "O'tmishimizni o'rganamiz", "Otalar so'zi-aqlning ko'zi", "Ulug'lardan o'rganmoq oqlillik", "Go'zal fazilat – inson ko'rki", "O'tmishni o'rganish burchimiz", "Vatanimiz o'tmishidan", "Ajdodlarimiz faxrimiz", "Ma'naviyat – qalb quyoshi" kabi bo'limlarni kiritish mumkin. Ushbu bo'limlarda berilgan hikoya, rivoyat, naqlarda aks etgan voqealardan o'quvchilar kerakli xulosalarni chiqarib, ma'naviyatini yuksaltirmoqdalar.



O'quvchilarga maqollarning mazmunini o'rgatish

Maqol – xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli janrdir. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan bo'ladi. Maqollar asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xildir. Xalqimiz tomonidan Vatan, mehnat, ilm, hunar, do'stlik, ahillik, donolik, xushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab M. Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan, M. Koshg'ariy asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “Odam olasi ichida, mol olasi tashida” kabi.

Maqol turmush tajribalari zaminida xalq og'zaki orqali tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir. Maqollar mazmunli mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko'pincha maqol o'git, nasihat xarakterida bo'ladi: „Yer haydasang - kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda», „Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining» kabi.



Boshlang'ich sinflarda maqollarni o'rgatish bosqichlari

Ma'lumki, badiiy asar matni ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni o'rganishda ham bu bosqichlarga e'tibor qaratish kerak. 1-2-sinflar maqollarni o'rganishning birinchi bosqichi bo'lsa, savod o'rgatish davri maqollarni o'qish va o'rganishning tayyorlov bosqichidir.

Savod o'rgatish davridayoq o'quvchilar maqollarni o'qiydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ular matn g'oyasini o'quvchilarga lo'nda, aniq yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Bu vaqtda o'quvchilarga maqollar o'qitiladi, ma'nosini bilganlaricha izohlab berishlari so'raladi. O'quvchilar javobini o'qituvchi to'ldirib, misollar bilan dalillab beradi.

Maqollarni o'rgatish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g'oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim. Iloji boricha ularni dars rejasiga kiritish, izohli lug'atlardan uning ma'nosini oson izohlaydigan, sodda til bilan tushuntirish mumkin bo'lgan shakllarini bilib olish zarur. Buning uchun o'qituvchi „Maqollar to'plami“ va ularning izohiga oid adabiyotlarga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o'qish va o'rganish, tahlil qilish asar o'qilib, tahlil qilinib bo'lingach amalga oshirilishi kerak. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyani tushunmay turib, maqolning ma'nosini izohlash qiyin bo'ladi. Mualliflar ham maqol ma'nosini asar voqealari bilan izohlamqchi bo'ladilar.

1-2-sinflarda maqolni ifodali o'qish va yod olishga ahamiyat beriladi. 1-sinf darsligida bo'lim yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarda ham maqollarni o'rganishga katta e'tibor berilgan. Masalan, „Xalq o'giti-baxt kaliti“ bo'limidagi savol-topshiriqlarda „Rostgo'ylik haqidagi maqollardan ayting“, „Odob insonga husn“ bolimida „Qanoatda-barakat“ maqolining ma'nosini tushuntirib bering“, „Ko'klam-yashnadi olam“ bo'limidan so'ng „Bilim olish haqidagi maqollarni ayting“ kabi vazifalar berilgan. Har bir bo'lim yuzasidan berilgan vazifalarda u yoki bu maqolni o'rganish ko'zda tutilgan.

1-2-sinfda maqolning mazmunini o'rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar ma'nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi. Masalan, 1-sinf „O'qish kitobi“ da „Ona yurti - oltin beshigi“ maqoli berilgan. Mana shu maqol matni ustida ishlaganda, „Yurt“ so'zini qaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin?, „Maqolda ona yurt nimaga tenglashtirilayapti?“, „Beshik oltin bo'ladimi?“ kabi savollar berish yo'li bilan o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish ustida ishlanadi. Bundan tashqari, „Eling senga cho'zsa qo'l, Unga doim sodiq bo'l“ maqolining ma'nosini tushuntirishda shu bo'limdagi asarlardan, bolalar uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan sharoitlardan misollar keltirish lozim. Masalan, „Jar“ sport kompleksi sizning sog'lom o'sishingiz uchun yaratildi. Maktabda bepul bilim olyapsiz. Shunga javoban siz nima qilishingiz kerak?“ kabi. Shu maqolning badiiy til vositasi ustida ishlashda „Qo'l cho'zsa“ deganda nimani tushundingiz?“ kabi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qilish va uning qanday ma'noda kelayotganini aytib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi.

2-sinfda „Ish ishtaha ochar“ matnida'n keyin: „Ish ishtaha ochar, Dangasa ishdan qochar“, „Kuch birlikda“ matnidan keyin „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar“ maqollari keltirilgan. Bu maqollardan matn o'rganib bo'lingach, asarning g'oyasini ochishda va xulosa chiqarishda foydalaniladi. Su tarzda maqol mazmuni ham ochiladi. Maqol tili ustidagi 1-sinfda uyushtirilgan ishlar 2-sinfda ham davom ettiriladi. Maqol ustida ishlash orqali o'quvchilar uning yaratilishi sababini, oddiy gapdan farqini bilib oladilar.

3-4-sinflarda maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o'rganish jarayonida ham muntazam o'rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to'g'ri va ongli o'qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so'zning va yaxlit maqolning ma'nosini to'liq idrok etishga erishishdir. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini egallashi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganishlari zarur. Shuningdek, 3-sinf „O'qish kitobida“ „Mehrjon sayli“ matnidan keyin Mehnat baxt keltirar,

Mehnating zabu-ziynating, Mehnat qilgan xor bo'lmas kabi maqollar keltirilgan bo'lib, bu maqollar orqali o'quvchilarda mehnatsevarlik tuyg'ulari shakllantiriladi.

3-4-sinflarda „Xalq og'zaki ijodi“ bo'limi tarkibida „Maqollar“ mavzusi alohida o'rganiladi. Bu mavzuni o'rganishda maqolning kelib chiqishi, yaratilishi haqida dastlabki elementar ma'lumotlar beriladi. Bunda maqollar xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi asosida vujudga kelganligi, tarbiya vositasi sifatida har bir xalqning milliy ma'naviyatining shakllanishida muhim vosita bo'lishi haqida dastlabki tushunchalar beriladi.

Maqollar mavzular bo'yicha guruhlab o'rgatiladi. Masalan, 4-sinf „O'qish kitobi«da maqollar „Ona yurtning – oltin beshiging“, „Eldan ayrilguncha, jondan ayril«, „Mehnat –baxt keltirar“, „Odobing – zeb-u ziynating“, „Olim bo'lsang, olam seniki“, „Ko'ngil ko'ngildan suv ichar“ kabi mavzular asosida birlashtirilib berilgan. O'quvchilarga maqollarni mavzu bo'yicha guruhlab o'rgatishda o'qish mavzulariga asoslaniladi. Bunda maqol mazmuniga mos asarlar nomini keltirish, uning mazmun va g'oyasini maqol bilan bog'lash kerak. Bu jarayonda o'quvchilarning hayotiy tajribalari asosida misollar keltirish bilan maqollarni izohlash yoki o'quvchilarga maqol g'oyasiga mos bironta hikoya tuzish mustaqil ish sifatida berilishi ham mumkin.

3-4-sinflarda maqol janri bo'yicha tahliliy ishlar o'quv yili davomida izchil uyushtirilib boriladi, ya'ni „Asar g'oyasiga oid maqol ayting“, „Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating“ kabi topshiriqlar beriladi, „Maqollar aytish musobaqasi, „Maqollar mushoirasi“ kabilar tashkil qilinadi. Maqollarni o'rganishda ko'rgazmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi.

4-sinf yakunida maqol janrini o'rganish yuzasidan umumlashtiruvchi darsni tashkil qilish zarur. Bunda o'quvchilarga yod olingan maqollar mavzusiga qarab guruhlash ustida ish olib boriladi:

1-guruh

To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'lasan,

Egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan.

2-guruh

Tadbir bilan mushkul ish oson bo'lar,

Tadbirsizning holi tang bo'lar.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, maqolni o'rganishda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. Maqolni o'qib, uning mazmuni ustida ishlash.
2. Maqoldagi so'zlarning ma'nosini izohlash.
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash.
4. Maqolni yod oldirish.
5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma'noli va ma'nodosh so'zlarni aniqlash va ularning maqolda ifoda etilgan g'oya bilan aloqasini ochish.
6. Matn mazmuni va g'oyasiga mos maqol topish.
7. Maqollarni mavzular bo'yicha guruhlash

Masalan, "Toma-toma ko'l bo'lur, tommay qolsa cho'l bo'lur" deyilishining ma'nosini hayotiy misollar bilan bolalarga anglatish, tomchi suv bir o'simlikni qurib qolishdan asrashi, e'tiborsizlik oqibatida bekorga oqib yotgan jo'mraklarni burab qo'yish, tejalgan suvlar necha yillar o'simlik, daraxtlarning o'sishini ta'minlashi mumkinligini, bu ishda, ayniqsa, bolalarning kattalarga yordami muhim ekanligini tushuntirish vazifamizdir.



O'quvchilarni manaviy-axloqiy tarbiyalashda maqollardan foydalanish

Bilim olish haqida maqollar

Bilim – aql chirog'i.
Bilim baxt keltirar.
Bilim – davlatdan qimmat.
Bilimliga dunyo yorug',
Bilimsizga – qorong'u.
Bilimlining bilimi yuqar,
Bilimsizning nimasi yuqar.
Aql ko'pga yetkazar,
Hunar – ko'kka.
Bilagi zo'r birni yiqar,

Bilimi zo‘r – mingni.
Bilgan o‘zar,
Bilmagan to‘zar.
Bilgan o‘qir,
Bilmagan to‘qir

Kitob haqida maqollar

Kitob – aql qayrog‘i.
Kitob ko‘rmagan kalla – giyoh unmagan dala.
Kitobsiz aql – qanotsiz qush.
Kitoblar – aql farzandlaridir.
Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do‘stlardir.
Kitob bilim bulog‘i – o‘quvchining o‘rtog‘i.
Kitob xazina, bilim boylik.

Mehnat haqida maqollar

Yer haydasang kuz hayda,
Kuz haydamasang yuz hayda.
Mehnatning ko‘zini topgan,
Boylikning o‘zini topar.
Bilim va hunar ol, qadrla uni,
Bilim-la hunar ham qadrlar seni.
Obro‘ning onasi mehnat,
Otasi harakat.
Boboning tol ekkani,
O‘ziga nom tikkani.
Kun g‘amini sahar ye,
Qish g‘amini bahor ye.
Bir kishi ariq qazir,
Ming kishi suv ichar.
Mehnat qilsang yasharasan,
Katta katta osharasan.
Yozgi harakat,
Kuzgi barakat.

Vatanparvarlik haqida maqollar

Ayrilmagin elingdan,
Quvvat ketar belingdan.

Baliq suv bilan tirik,
Odam – el bilan.

Betkay ketar, bel qolar,
Beklar ketar, el qolar.

Birovning yurtida bek bo'lguncha,
O'zingning yurtingda qul bo'l.

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.

Vatan gadosi – kafan gadosi.
Vatan uchun o'lmoq ham sharaf.
Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini
bilmas.
Vatanga kelgan – imonga kelar.
Vatanga falokat – o'zingga halokat.
Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti.

Vatanning tinch – sen tinch.
Vatanni sotgan er bo'lmas.
Erdan chiqsang ham, eldan
chiqma.

Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar,
Yurtidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

Kishi yurtida shoh bo'lguncha,
O'z yurtingda gado bo'l.

Ona yurting – oltin beshiging.
Ona yurting omon bo'lsa,
Rangi ro'ying somon bo'lmas.

Do'stlik haqida maqollar

Arpa-bug'doy bir kuningga yaraydi,
Sodiq do'sting o'lguningcha yaraydi.

Asli dushman el bo'lmas,
Etakni kessang, yeng bo'lmas.

Bahq suvsiz yashamas,
Inson – do'stsiz.
Bilagi alp birni yiqar,
Do'sti ko'p – mingni.

Bir ko'rgan – tanish,
Ikki ko'rgan – bilish.

Gadoning dushmani – gado,
Shohning dushmani – shoh.
Davlating – do'sting.

Daraxt – ildizi bilan,
Odam – do'stlari bilan.

Daraxtni tomiri saqlar,
Odamni – do'sti.

Dushman siringni o'g'irlar,
Do'st xatongni to'g'rilar.

Dushman o'lar, do'st qolar,
O'sma ketar, qosh qolar.

Xulosa

Xalq og'zaki ijodidan maqol janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri maqol ta'sirchanligi, o'tkir sujetligi va xalq tiliga yaqinligidir. Maqol o'qib bo'lingach, uning mazmuni ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

O'qituvchilar oldida ma'naviy merosimizdan xabardor, aqlli, bilimdon, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdek yuksak va ma'suliyatli vazifa turar ekan, o'z oldiga barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan har bir ustoz va murabbiyning o'zi avvalo yuqorida ta'kidlangan ma'naviy merosimizdan biri bo'lgan maqollardan va ularning mazmunidan xabardor bo'lishlari, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lishlari kerak. Bolalarga boshlang'ich sinflardan oq manmanlik va kamtarlik, johillik va bosiqlik, sabr-toqatlik va sabrsizlik, yaxshilik va yomonlik kabi sifatlarni hayotiy misollar bilan tushuntirish orqali bolalar ongiga barkamol shaxsning vazifalarini ham singdirib borishlari lozim. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalash, ularni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat, samimiy, sadoqatli, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foyda keltira oladigan haqiqiy insonlar qilib tarbiyalash har bir pedagogning eng ezgu maqsadi bo'lmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
2. Avloniy A. "Turkiy Guliston - yoxud axloq". Toshkent. O'qituvchi. 1992-yil
3. Hasanboyeva O. va b. "Odobnoma fanini o'qitish metodikasi", Toshkent, "Bilim", 2013-yil.
4. Matchonov S. va b. O'qish. 4- sinf uchun darslik: - T.: „O'qituvchi“ 2017-yil.
5. Mirzayev T., Musaqulov A. «O'zbek xalq maqollari» - T.: 2005.
6. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari. "Xalq ta'limi". 5-son, 2001-yil.
7. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2018-yil, 5 son.
8. 1- 4 sinf odobnoma darsliklari

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali.
2. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi portali.
3. <http://www.multimedia.uz> ([http:// www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)) - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.
4. [http:// www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) – Respublika ta'lim markazi sayti

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ma'naviy- axloqiy tarbiya berish.....	4
O'quvchilarga maqollarning mazmunini o'rgatish.....	7
Boshlang'ich sinflarda maqollarni o'rgatish bosqichlari	8
O'quvchilarni manaviy-axloqiy tarbiyalashda maqollardan foydalanish.....	13
Xulosa.....	17
Foydalanilgan adabiyotlar.....	18

RABBONAYEVA DILDORA TOLIPOVNA

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-
AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.

1,5 bosma taboq Adadi: 50nusxa. Buyurtma №58/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.

